Ona tili ta’lim jarayonida Mantiqiylik va matn kompozitsiyasini shakllantirish

Dilnura Mardiyeva

Samarqand davlat universiteti Kattaqo’rg’on filiali Pedagogika va tillarni o’qitish fakulteti Filologiya va tillarni o’qitish o’zbek tili yo’nalishi 2-kurs talabalari

Charos Turdiboyeva

Samarqand davlat universiteti Kattaqo’rg’on filiali Pedagogika va tillarni o’qitish fakulteti Filologiya va tillarni o’qitish o’zbek tili yo’nalishi 2-kurs talabalari

Annotatsiya: Maqolada ona tili ta’limi jarayonida nutqiy mantiqiylik va matn kompozitsiyasini rivojlantirish,o’quvchilarning mantiqiy fikrlash tafakkurini oshirishga asoslangan. Matn asosida mantiqiy fikrlash, lug’atlar bilan ishlash, ibora va maqollardan to’g’ri foydalanish,o’quvchilarning mustaqil fikrini bayon qilish maqsad va vazifasi ishlab chiqilgan.

Kalit so’zlar: Mantiqiylik,matn kompozitsiyasi, nutqning mantiqiyligi, mentalitet,mahalla,fikrni mustaqil bayon qilish.

Аннотация: Статья построена на развитии речевой логики и композиции текста в процессе обучения родному языку, повышении логического мышления учащихся. На основе текста разработаны цель и задачи логического мышления, работы со словарями, правильного употребления словосочетаний и пословиц, выражения самостоятельного мнения учащихся.

Ключевые слова: Логичность, композиция текста, логичность речи, менталитет, соседство, самостоятельное выражение мнения.

The Annotation the article is based on the development of speech logic and text composition in the process of mother tongue education, increasing the logical thinking of students. Based on the text, the goal and task of logical thinking, working with dictionaries, correct use of phrases and proverbs, and expressing the independent opinion of students have been developed

Key words: logicality, text composition, logicality of speech, mentality, neighborhood, independent expression of opinion.

Keyingi yillarda ona tili ta’limida nutqning mantiqiyligi va o’z fikrini og’zaki shaklda erkin va ravon ifodalashga alohida e’tibor berilmoqda. Xususan,maktab darsliklarida ifodali o’qish, mustaqil fikrlash, og’zaki nutqni o’stirish,mantiqiy fikrlash ko’nikmalarini oshirish yo’lga qo’yilmoqda.Matnlar orqali mantiqiy fikrlashga undash va bundan yuqori natijaga erishish konsepsiyalar ishlab chiqilmoqda.Shu jumladan, bizning Samarqand davlat universitetining Kattaqo’rg’on filiali o’zining o’quv dastur rejasiga “Matn va lug’at ustida ishlash” va “Tahliliy o’qish” fanlari kiritilgan.Bu fanlar yangi darsliklardagi matnlarni (tinglab tushunish, o’qib tushunish, so’zlash, yozish) va mantiqiy fikrlash tafakkurini rivojlantirishga yo’naltirilgan asosiy fanlardir.O’zbek tilida ravon va ta’sirchan nutq so’zlash uchun frazeologizmlar, aforizm, hikmatli so’zlar, maqollardan samarali foydalanishni o’rganish kerak, chunki oddiy nutq jarayonidan tortib,murakkab nutq jarayonlarida ham bunday birikmalar nutqning ta’sirchanligini , obrazliligini , nutqning jo’yaliligini oshirishga yordam beradi.

Nizomiddin Mahmudov nutqning mantiqiyligi to’g’risida shunday fikr yuritadi:

Nutqning mantiqiyligi

Nutqda so‘zlar va gaplar o‘rtasidagi ma’noviy-mazmuniy aloqalarning ifodalayotgan fikrdagi mantiqiy

mohiyat va uning rivojlanib borishiga mos kelishi

nutqning mantiqiyligi sanaladi.

Nutqning mantiqiyligi quyidagilarni taqozo etadi:

– mantiqiy tafakkur qoidalarini bilish;

– bir fikrni ikkinchisiga bog‘lay olish va bu orqali

fikr izchilligini ta’minlash;

– tushuncha va fikrlar o‘rtasidagi munosabatlarning

mantiqiyligiga erishish;

– o‘z fikrini asoslay bilish, uning to‘g‘riligini dalillar

bilan isbotlash;

– bildirilayotgan fikrlar o‘rtasida ziddiyat bo‘lmasligiga erishish;

– so‘zlarning ma’noviy-mazmuniy mohiyati, ularning gapda o‘zaro bog‘lanish xususiyatlari va tartibini

bilish, jumla va gaplarning fikr mazmuni bilan muvofiq

bo‘lishiga erishish;

– mantiqan bir-biriga zid, o‘zaro aloqador bo‘lmagan tushunchalarni ifodalovchi so‘zlarni nutqda

qo‘llamaslik va shu kabilar. [24]

11-sinf ona tili darsligi 48-mashq [46-bet]

1-topshiriq .Matnni o’qing. Sizningcha, bizning yurtimizda shunday hodisa yuz bersa , bizda bu hodisaga qanday munosabat bildiriladi?

MENTALITET

Kunlarning birida Amerikada chiqadigan yirik gazetaning rahbari bilan

hamsuhbat bo‘lib qoldik. U o‘zbeklar nima uchun mahallani bunchalik

hurmat qilishini, nega mahalla to ‘g‘risida maxsus Qonun qabul qilinganini

so‘radi. Mahalla degani qanday tuzilma ekanini tushuntirib berishimni

iltimos qildi.

- Men sizga mahallani tushuntirishga ojizman, janob, — dedim rostini aytib. — Uzr-ku, siz uni baribir tushunmaysiz. Buning uchun siz

ham, men ham aybdor emasmiz. Hamma gap hayot tarzining qanday

shakllanganida.

Tasavvur qiling. Sizlarda o ‘n olti yashar bola otasi bilan ellik dollar

talashib, sudga murojaat etsa-yu, g‘olib chiqib, otasini ming dollar jarima to’- lashga majbur qilsa, bu demokratiya tantanasi sanaladi.

2-topshiriq. Matnning keying qismini o’qing.Bizning yurtimizda bu holatga munosbat qanday? Fikringizni og’zaki bayon qiling.

Bizlarda shunday hodisa yuz bersa, bunaqa bolani «oqpadar» deydilar va bir umr la’natlaydilar.

Sizlarda bir qo‘shni ikkinchisidan «Kecha uyingizga qanday mehmon

keldi?» deb so'rasa, narigi qo‘shni ranjishi mumkin. Birovning uyiga kelgan mehmon bilan birovning nima ishi bor? Bizda birovnikiga mehmon

kelsa, yon qo‘shnisi, albatta, xabar oladi. Iloji bo‘lsa, mehmonni o ‘zinikiga

taklif qilib, oldiga dasturxon yozadi.

Bilib turibman, janob, mahalla degani nimaligini, baribir, tushuntirib

berolmadim. Ammo bor gap — shu. (0 ‘. Hoshimov)

3-topshiriq. Matn mazmunidan kelib chiqib matnga mos sarlavha toping?

“Azaliy qadriyatlarimiz” , “Milliy an’analarimiz”

4-topshiriq.Matnda ajratilib ko’rsatilgan so’zlarni izohli lug’atini yarating va yod oling?

MENTALITET - [nem. Mentalitat <lom,men's,mentis akd , idrok] Jamiyat,millat,jamoa yoki alohida shaxsning tarixiy tarkib topgan tafakkur darajasi, madaniy salohiyati,ularning hayot qonunlarini tahlil etish kuchi,muayyan ijtimoiy sharoitlardagi aqliy qobiliyati ruhiy quvvati(3-tom)

MAHALLA - \a.i U - joy ,o'rin,makon 1.Shaharning ma'lum bir hududini o'z ichiga olgan va aholisi bir jamoaga birlashgan, o'zini o'zi boshqarishga asoslangan ijtimoiy hududiy bo'lagi (3-tom)

JARIMA - [a. --jinoyat , gunoh] Qonun qoidani buzganlik,qonun- qoidaga xilof xatti - harakat yoki yetqazilgan moddiy zarar uchun undiriladigan, to'lanadigan pul.(3-tom)

LA’NAT - [la'nat , qarg'ish] Kechirib bo'lmaydigan aybi, xatti-harakati,og'ir jinoyati bildirilgan qat'iy qarg'ish,shunday mazmunda aytilgan gap - so'zlar.(3-tom)

SUD [qad . r - ish,hukm] Muayyan fuqoroviy nizolarni hal qiluvchi hamda jinoyi ishlarni ko‘rib chiquvchi, odil sudlovni amalga oshiruvchi davlat organi.3-tom (672-b).

OJIZ [a.] nimjon,kuchsiz,bo‘shashgan,zayif,noqobil,no‘noq,ko‘rmaydigan ko‘r. 3-tom (103-bet)

QONUN [a . ko‘rsatma, tartib, qoida,huquq, kodeks, usul, rasm.] 5-tom (103-bet).

OQPADAR [a+f . Ota - onasini norozi qilgan farzand , norozi ,norizo.] 3-tom (208-bet).

DEMOKRATIYA [yun . demos-xalq, kratos- hokimiyat , jamoa barcha a’zolarining birlashgan tizimi.] 1-tom (208-bet)

RANJ [f .mehnat ,mashaqqat, tashvish, dard, alam, g‘am.] Biron bir voqea hodisadan ranjimoq. 3-tom (403-bet).

5-topshiriq.Sizga ham Amerikalik sayyoh “mahalla” qanday tuzilma ekanligini so’rasa, siz qanday javob bergan bo’lar edingiz?

O‘zi tug‘ilib o‘sgan joy inson uchun Vatan hisoblanadi. Mahalla esa Vatan ichra kichik Vatandir. Uning obodligi, go‘zalligi va ko‘rkamligi uchun jon koyitish har bir kishining muqaddas burchi hisoblanadi. Gohida ba’zi odamlarning o‘zi yashab turgan mahalladagi ahvoldan ranjib gapirganini eshitib qolaman. Aslida nolish kerak emas, shu mahallaga o‘zim nima hissa qo‘shdim, deb o‘ylab ko‘rishi kerak. Agar mahallada hamjihatlik bo‘lsa, obodlik va ko‘rkamlikka hissa qo‘shuvchilar safi ko‘paysa, albatta, g‘ururlanishga arzirli maskanga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.”Nutq madaniyati va davlat tilida ish yuritish” Nizomiddin Mahmudov.Cho’lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent-2013

2.”O’zbek tilining izohli lug’ati” D.A.Shorahmedov,M.N.Aminov, A.Niyozov(1,2,3,4,5-tom)

3.Umumiy o’rta ta’lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik. Cho’lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi – 2019.(Muhammadjon Qodirov, Hamid Ne’matov)

4.https://xs.uz